



Rumiy Ijodida Ishq Va Ayol Ahamiyati

Nargiza Shoaliyeva PhD, Associate Professor,

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Department of Classical Literature and Origins,

11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

Tel: (998) 98-127-30-06. nshoaliyeva74@mail.ru

Annotatsiya:

Milodiy 11-13-asrlar fors adabiyotining eng ko‘zga ko‘ringan mavzularidan biri irfon yoki tasavvufiy adabiyot bo‘lsa, bu turdagи adabiyotning eng mashhur namoyandasи Jaloliddin Muhammad Balxiy Mavlaviy (1207-1273) va uning bezavol asari “Masnaviy ma’naviy”si hisoblanadi. Bu asar asrlar davomida ilm ahli dunyosiga maruf bo`lib, bugungi kungacha ham o`z qiyamatini yuqotmagan. Garchi birinchi marta "Masnaviy ma'naviy"ning tanqidiy ko'rinishi, taniqli ingliz olimi Nikolson tomonidan nashr etilgan bo'lsada, bugunga qadar ko'plab tadqiqotchilar, izlanovchilar va tarjimonlar uning o'lmas asarlarini bir necha tillarga tarjima qilib, o`zlarining ma'naviy mulkiga aylantirib bo`lgan. O'zbekistonda ham Mavlaviy va uning asarlariga katta e'tibor qaratilgan.

Jaloliddin Mavlono asarlarining asosiy mavzusi ishqdir. U sevgini hayot eleksiri, hayot manbai va yashashning yagona omili va sababi deb biladi. Mavlaviyning so'zlariga ko'ra, inson ruhida erkak va ayol degan tushuncha yo`q. Mavlaviy erkak-ayol ishqini ilohiy ishq manbaidan nash`at olgan deb, hisoblaydi va ikkalasining bir tan bir jon bo`lishini-birligini monoteizm deb biladi. Biroq, ayrim hollarda, u o'z davri odamlarining tasavvurlarini ham aks ettirgan.

Kalit so'zlar: Mavlaviy, Masnaviy Ma'naviy, she'rlar, asarlar, tasavvuf, tasavvuf, adabiyot, forscha, tadqiqot, ayol.

Аннотация:

Одной из самых ярких тем персидской литературы 11-13 веков нашей эры является мистическая литература, а самым известным представителем этого типа литературы является Джалауддин Мухаммад Балхи Мавлави (1207-1273), и его прекрасное произведение «Маснави Манави». Этот труд известен миру учёных на протяжении веков и не утратил своего значения и в наши дни. После впервые опубликованной рецензии на «Маснави Манави» известным английским учёным Николсоном, многие другие исследователи и переводчики перевели его бессмертные произведения на несколько языков и сделали своими собственными духовными ценностями. Большое внимание Мавлави и его творчеству уделяется и в Узбекистане.

Основная тема произведений Джалауддина Мавлави— любовь. Он видит в любви эликсир и источник жизни, единственный фактор и причину для жизни. По мнению Мавлави, в душе человека нет понятия мужского и женского рода. Мавлави считает, что любовь мужчины и женщины вдохновлена источником божественной любви и считает единство тела и души монотеизмом. Однако в некоторых случаях он также отражал верования людей своего времени.

Ключевые слова: Мавлави, Маснави Манави, стихи, произведения, мистика, мистика, литература, персидский язык, исследования, женщина.

One of the most prominent themes of Persian literature of the 11th-13th centuries AD is mystical literature, and the most famous representative of this type of literature is Jalaluddin Muhammad Balkhi Mawlawi (1207-1273) and his beautiful work "Masnavi Ma'navi". This



work has been known to the world of scientists for centuries and has not lost its significance even today. After the first published review of "Masnavi Manavi" by the famous English scientist Nicholson, many other researchers and translators translated his immortal works into several languages and made them their own spiritual values. Big attention is paid to Mawlawi and his work in Uzbekistan.

The main theme of Jalaluddin Mawlawi's works is love. He sees love as the elixir and the source of life and the only factor and reason for life. According to Mawlawi, there is no concept of masculine and feminine in the human soul. Mawlawi believes that the love of a man and a woman is inspired by the source of divine love and considers the unity of body and soul to be monotheism. However, in some occasions he also reflected the beliefs of the people of his time.

Key words: Mawlawi, Masnavi Manavi, poetry, works, mysticism, mysticism, literature, Persian language, research, woman.

Kirish


Milodiy 11-13-asrlar fors adabiyotining eng ko'zga ko'ringan mavzularidan biri irfon yoki tasavvufiy adabiyot bo'lsa, bu turdag'i adabiyotning eng mashhur namoyandası Jaloliddin Muhammad Balxiy Mavlaviy (1207-1273) va uning bezavol asari "Masnaviy ma'naviy"si hisoblanadi. Bu asar asrlar davomida ilm ahli dunyosiga maruf bo'lib, bugungi kungacha ham o'z qiyomatini yuqotmagan. Garchi birinchi marta "Masnaviy ma'naviy"ning tanqidiy ko'rinishi, taniqli ingliz olimi Nikolson tomonidan nashr etilgan bo'lsada, bugunga qadar ko'plab tadqiqotchilar, izlanovchilar va tarjimonlar uning o'lmas asarlarini bir necha tillarga tarjima qilib, o'zlarining ma'naviy mulkiga aylantirib bo'lgan. O'zbekistonda ham Mavlaviy va uning asarlariga katta e'tibor qaratilgan.

Asosiy qism

Bizga ma'lumki, Nikolson 15 yil davomida (1925 yildan 1940 yilgacha) bu asarni tarjima qilish va talqin qilish bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda Nikolson tomonidan nashr etilgan matn "Masnaviy" ning haqiqiy nuxxalaridan biri hisoblanadi. Eronlik olim Badiazaman Fruzanfar "Masnaviy ma'naviy" hadislarini to'plab, manbalarini ko'rsatgan. Shundan so'ng u "Masnaviy" qissa va tashbehlaring manbalarini aniqlashga kirishib, arab va fors tillaridagi ko'plab manbalarni topa oldi. Abdul Husayn Zarinkub ikki jildlik "Sari nay"ni "Masnaviy"ning tahliliy tanqidi asosida yozgan. U bu asarida "Masnaviy" ijodida Rumiy tili va bayon uslubini oydinlashtirib, asarning g'oya va mazmunini keng miqyosda tahlil qilgan. Jaloliddin Humoij «Masnaviy»da «Mavlavi noma» asarida Rumiyning falsafiy, diniy va tasavvufiy qarashlarini tahlil qilgan va shu yo'1 bilan she'rlarning tasavvufiy mohiyatini ochib bera olgan. Ibrohim Xodiyor "Masnaviyda duo" nomli asarida duolardan iborat matnlarni tadqiq qilib, Rumiyning ushbu asarida duoni o'z ichiga olgan misralar alohida o'rin tutishini tushuntiradi. Bu kitob Rumiy asarlarida namozning muhim o'rnini belgilab bergen.

O'zbekistonda "Masnavi ma'naviy" asari juda mashhur bo'libgina qolmay, balki uning hikoyalariga xos xususiyatlarni tadqiq va tahlil qilishda ham munosib ishlar amalga oshirilgan. "Masnaviy"ning oltita qissasini nasriy shaklda yozib, Rumiyning tasavvufiy-falsafiy g'oyalarini tahlil qilgan shaxslardan biri, tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ishlarini, mavlonoshunoslilik borasida qilingan arzigulik ishlardan biri desak mubolig'a bo'lmaydi.¹ Bundan oldinroq 1999yili shoir va muhaqiq Asqar Mahkam tomonidan nashr etilgan "Jaloliddin Rumiy "Ma'naviy masnaviy"" kulliyoti ham tarjima sharh va tahlildan iborat

¹ Комилов Н. «Маснавий» ҳикояларининг таржима ва талқини // Жалолиддин Румийнинг мангу маънавий мероси. Илмий мақолалар тўплами. Масъул муҳаррир Куронбеков А. – Т.: ТДШИ, 2007.



bo`lgan e`tiborga loiq kitoblardan biri hisoblanadi.²

Sharqshunos olim Ahmadqo`l Quronbekov o`zining “Ma’naviy masnaviyda tasavvuf timsollar” nomli asarida ishq, aql, inson, qalb va qalb timsollarini “Masnaviy” matni asosida tahlil qilib, aniq misollar bilan izohlab berdi. Bu asar Rumiyning “Masnavi”sida qo‘llangan timsollar bilan ko‘proq tanishish uchun zamin yaratadi.

«Masnaviy»ning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ko‘plab tafsirlar asarlar yaratilgan. Ammo shuni ta’kidlash joizki, ba’zi “Masnaviy” misralarining ilk ta’rifi Mavlono Jaloliddin Balxiyning “Fihi ma fihi” nomli nasriy asarida uchraydi. Muallifning “Masnaviy”dan quyidagi baytni chuqur tasavvufiy tahlilga solganligi o’sha davrda ham bu asar baytlari talqiniga ehtiyoj borligidan dalolat beradi:

ای برادر تو همان اندیشه ای مابقی تو استخوان و ریشه ای³

Ma`nisi: *Ey birodar, sen faqat fikrsan, qolganları suyak va tomir.*

Kamoliddin Xorazmiyning “Javohar al-asror va zavohir al-anvor”, Yoqub Charxiyning “Naynama yoki risola naye”, Abdulrahmon Jomiyning “Naynama”si, Xoja Ayyubning “Asrorul-g‘ayyub” ta’rifi, Bahrul-ulumning “Masnaviy”ning tasavvufiy talqini, Mulla Hodi Sabzevariyning “Tafsir al-Masnaviyi”, Adina Muhammad Xorazmiyning “Muftahul-asror” kabi asarlari Masnaviyga yozilgan eski sharhlaridir.⁴

Q.Saydaliyev o‘z tadqiqotida “Masnaviy” qissalari asosida inson obrazini qo‘llagan va “Masnaviy” mulohazalari asosida “Masnaviy”da qamish(nay) komil inson timsoli ekanligini tasdiqlagan. R.Jumayev dissertasiyasida “Masnaviy” va “Lison ut-tayr”dagi umumiyligi hikoyalarini qiyosiy o‘rganib chiqqan. Bu tadqiqotda muallif Navoiy hikoyalarni talqin qilishda Mavlaviy uslublaridan ham foydalanihgani ta’kidlab o’tgan.

O‘zbekistonda Rumiy ijodi haqida ko‘plab risolalar, maqolalar yozilgan. Uning falsafiy-tasavvufiy fikrlari, she’riy mahorati o‘zbekistonlik bir qancha olim va tadqiqotchilar, jumladan, yuqorida nomlari zikr etilgan Najmuddin Komilov, Asqar Mahkamov hamda Ahmadjon Ko‘ranbekov, Rashid Jumayev, Ergash Ochilov, Qahramon To‘xsenov, Xusrav Hamidov va boshqalarni sanab o‘tish mumkin. Boshqalar qatorida Xusrav Hamidov doktorlik dissertatsiyasining Masnaviy manbalarini, mavzusi va mazmuni haqida o‘z dalillarini keltiradi. Tadqiqotchi ushbu tadqiqotida ba’zi “Masnaviy” qissalarining asosiy manbalarini nisbatan eskiroq manbalardan topib, Rumiyning adabiy mahoratini bilish, qissalar mazmunini anglash va tuzilishini tushunishga yordam beradigan quyidagi xulosalar qiladi, ya’ni Xusrav Hamidov “Masnaviy” qissalarini tuzilish nuqtai nazaridan uch guruhgaga ajratgan: alohida qissalar, oyat va hadislar mazmuniga asoslangan hikmatli so‘zli qissalar va aralash qissalar, ya’ni hikoya ichida hikoya qissalar. Mazkur tadqiqotida “Masnaviy”da latifalardan foydalanishning besh tamoyilini tilga olgan bu Rumiyning hikoyatchilik mahoratidan dalolat beradi. Bunga ko‘ra Xusrav Hamidov Rumiyning ba’zi hikoyalarini Attor hikoyalariga o‘xshab sharhlaganini aniqlaydi va bunga hech kim ahamiyat bermaganini ma’lum qiladi hamda Rumiy hikoyalarini “Mantiq-ut Tayr” hikoyalarini bilan qiyosiy tahlil ostiga olgan. Tadqiqotchi xulosasiga ko‘ra, uning tasnifi masnaviy hikoya va manbalarini o‘rganishda yordam beradi.

Rumiy ijodiy o‘ziga xosligi bilan ajralib to`radi, shakl jihatdan uning baytlari usha zamona an`anaviy talablaridan siljiganini, bayonda ichki ohangga ko‘proq e`tibor qaratganini

² Asqar Mahkam. Jaloloddin Rumiy “Ma’naviy masnaviy”. –Toshkent. Sharq nashri, 1999y. 367b.

³ مولانا جلال الدین محمد بلخی رومی. مثنوی معنوی. ۱۳۸۴، ۲۷۷/۲

⁴ کمال الدین حسین ابن حسن خوارزمی. جواهر الاسرار و ضواهر الانوار. در ۴ مجلد. با تصحیح دکتر محمد جواد شریعت. – تهران: اساطیر، ۱۳۸۴

مولانا یعقوب چرخی، رساله نائیه؛ مولانا جامی، رساله نی. مقدمه، تحشیه و تعلیق خلیل الله خلیلی. – کابل: ۱۳۲۶. خواجه ایوب. اسرار

الغیوب. شرح مثنوی معنوی. – تهران: اساطیر، ۱۳۷۷، ۶۸۴ ص.

محمد بن محمد بحر الطوم، تفسیر عرفانی مثنوی معنوی. – تهران: ایران پاران، ۱۳۸۳، ۱۳۷۴.

ملا هادی سبزواری. شرح مثنوی. – تهران: وزارت فرهنگ و ارشاد اسلامی، ۱۳۷۴.



hamda turli ijtimoyi mavzularda yondoshganini ko`rish mumkin.

Mavlaviy ijodining asl mohiyati inson va uning o`zligini anglashiga, inson va xudo, din va inson, bashar tafakkuri va uning mohiyati, ma`nosini tushunishga qaratilgan irfoniy va sufyonha hikoya va baytlardan iborat bo`lib, ayol mavzusi uning ijodida xos pardalarda jarang solganini ko`ra olamiz. Ayolga munosabatda ikki xil yondoshuvni moshahada qilish mumkin. Birinchi Mavlono tushunchasiga ko`ra tavhidga yetishish ishq olqali bo`lsa, ishqni angash insonlar (erkak va ayol) orasidagi his to`yg`ular natijasi asosida vujudga keladi, masnaviyini boshidayoq deydi: (کز نیستان تا مرا بېرىدەند در نېیرم مرد و زن نالىدەند) “Kim nayistondan meni to kesdilar\ Hasratimdan erkak-ayol dod etdilar”⁵ shoir erkak va ayolni birga ishlatgan, ayro ishlatmagan, zotan ruhiyat va ma`naviyatda jins tushunchasi yo`q, erkak va ayol o`rtasida farq yo`q, bir biridan ustunlik yo`q, shunga ko`ra bu borada erkak va ayol bir biridan kam yoki ortiq emas, ya`ni ruhiyat mutlaq tushuncha. Mavlaviyning so`zlariga ko`ra, inson ruhi kognitiv va epistemik jihatdan jinsga ega emas. Mavlaviy dunyoviy sevgining ilohiy ishq manbaidan deb hisoblaydi va birinchisi ikkinchisiga ko`prik va yo`aloqa vositasi sifatida birlikga va monoteizmga yetkazadigan yo`l deb biladi.

Tasavvuf ahli va oriflar ishq va haqiqat sirlaridan, butun borliq uning ishqidan boshlanadi, deb hisoblaydilar.

Binobarin Jaloliddin Mavlono asarlarining asosiy mavzusi ishqdir. U sevgi-ishqni hayot iksiri, hayot manbai va yashashning yagona omili va sababi deb biladi. Faqat muhabbatgina o`tkinchi hayotga ma`no va mazmun bag`ishlaydi, unga rang-baranglik baxsh etadi, o`tkinchi va foniy dunyoda insonga mangulik ta`mini beradi. Sevgisiz, mehrsiz odamning qalbi butun emas va ayni paytda noqis bo`lib, bunday odam hayotida nimadir etishmayotganini bilvosita his qilib yashaydi va o`zini baxtsiz his qiladi. Mavlaviyning so`zlariga ko`ra, inson ruhi kognitiv va epistemik jihatdan jinsga ega emas. Mavlaviy ta`kidlaganimizdek, dunyoviy ishqni ilohiy sevgining manbai deb hisoblaydi va ikkalasining aloqasini birlik va monoteizm deb biladi.

Tasavvuf ahli ishq va haqiqat uning haqiqatidan, sirlaridan, butun borliq uning sevgisidan boshlanadi, deb hisoblashar ekan, sevgi borliqning mohiyati va ijodning boshlanishi, erkak va ayol o`rtasidagi muhabbat tuyg`usi esa Xudoning cheksiz muhabbatidan bir tomchidir:

ای تو پناه ھمه روز مخـن
باز سپردم به تو من خویشـن

*(Ey azobli kunlardan asraguvchi
Yana senga topshirdim o`zimni*

قلزم مھرى كەنارىش نىست
قطرة آن، الفت مردست و زن⁶

*Sen cheksiz mehr-muhabbat ummonidirsan,
Erkak va ayol o`rtasidagi muhabbat bu ummondan bir tomchidir)*

Tasavvufiy manbalarda ko`p qo`llaniladigan qudsiy hadis mazmuniga ko`ra, Alloh dastlab maxfiy bir xazina bo`lib, oshkor bo`lmoqni istaganidan, barcha maxluqotlarni o`z ishqining ko`zgusi sifatida yaratdi. Xususan bani insonda U o`z zuhurini ko`rsatgan, ayol va erkakning majoziy sevgisi, usha mutlaq ilohiy ishqning jilvasidir. ⁷ «المجاز قطرة الحقيقة» ya`ni inson bu dunyoning muhabbatidan Xudo muhabbatigacha o`tadigan mutlaq ilohiy ishqning bir bosqichidir. Bu darajaga erishish uchun, oshiqlardan o`zlaridan kechib, “men” va “sen” degan ikkilik va kontrastlikdan xoli bulmoqlikni talab qilinadi. Bir birlari bilan bir bulib, bir jon bo`lganda, jononga g`arq bo`ladilar, shunda fanoga yo`l tutadilar. Mavlono Rumiy oriflar tili

⁵ Asqar Mahkam. Jaloloddin Rumiy “Ma`naviy masnaviy”. –Toshkent. Sharq nashri, 1999y. 367b.

⁶ Кулиёте Шамс. 4-жилд. Техрон. 294-293Б.

⁷ «از افوال مشهور صوفیه است به معنی «مجاز پلی است به سوی حقیقت



bilan quyidagi matlabni bayon qilganda kinoya va tashbehni qorishiq holda qo'llab, Haqqa qaratib xitob qiladi:

ای رهیده جان تو از ما و من
ای لطیفه ی روح اندر مرد و زن

Ey sening jonig "sen va men"likdan qutulgan

Sen ayol va erkakda latif va nozik bir ruhsan

مرد و زن چون یک شود آن یک تویی
چون که یکها محو شد آنک تویی

Ayol va erkak birlashsa, o'sha birlashuv sensan

Ular birlashib fanoga yetganda, o'shanda ham sensan

این من و ما بهر آن برساختی
تاتو با خود نرد خدمت باختی

Bu men va bizni shunga yaratgansen

O'z uyiningda uzinga yutkazgansen

تا من و توها همه یک جان شوند
عاقبت مستغرق جانان شوند

To menu senlar bir jon bo'laylik

Oqibatda jononga g'arq bo'laylik

اینهمه هست و بیا ای امر گن⁸
ای منزه از بیا و از سخن⁹

Mana hammasi bor kel amr qilgin

Ey poklik kelgin va so'z aytgin

Zero ular Xudoning yerdagi soyasini oshiqlari bo'lib, xilmassilliklari va miqdorlari bilan jahonni tarannum aylagay:

ز سایة تو جهان پر ز لیلی و مجنون
هزار ویسه بسازد، هزارگون رامین

Jahon Layliyu Majnunga to'la soyangdan Sening

Yaratding minglab Vislaru minglab Rominlaring

Ishqning go'zalligi ham shundaki, insonni go'zallashtiradi, ya'ni ilohiy mutlaq jamol ko'rindi, oshiqlarning go'zalligi Allohnin eslatadi: «انَّ اللَّهَ جَمِيلٌ وَ يُحِبُّ الْجَمَالَ»¹⁰

Xulosa

Rumiy ijodi insonni aynan go'zallikga, ma'rifatga oshno etar ekan, uni o'rganish butun jahon uzra tarqalgan Amerigadan tortib Hindustongacha tadqiqot markazlari o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekistonda ham uning shaydolari kundan kunga ortib borayotganini mushahada qilish mumkin. Zero "Masnaviy" va ga'zallarida aytganimizdek, ayol zotiga ehtirom baland pardalarda kuylangan. Uning talqinida, inson qanchalik ayolni e'zozlasa, shunchalik sharaf va martabasi ulug'lanadi. Robia Adaviya kabi orifa ayollar, Bibi Maryam kabi mushfiq va pokdomon onalar, Zulayxo kabi muhabbat tufayli Haqni tanigan go'zallar uning talqinida hamisha e'zoz va ehtiromga loyiq zotlar bo'lgan. Shuningdek, Mavlononing ikkinchi qarashi xiyonatkor, o'z nafsining quliga aylangan, erlariga isyon qiluvchi ayollarni juda qattiq hajv qiladi. Ayrim hollarda, u o'z davri odamlarining tasavvurlarini ham aks ettirganini hikoyalarida uchratish mumkin, bu haqida alohida tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumiy olganda Rumiyning aqidasiga ko'ra, ayollikning asosiy jihatni bu hayo hisoblanadi. Hayoli ayol vafo, sadoqat va go'zallik timsolidir. Ayolning tashqi chiroyimas, balki ichki olamining

⁸ اشاره است به آیه 82 سوره پس: «إِنَّمَا أَمْرُهُ إِذَا أَرَادَ شَيْئًا أَنْ يَقُولَ لَهُ كُنْ فَيَكُونُ»، «کار خدا غیر از این نیست که هرگاه چیزی بخواهد، به آن «می گوید باش، پس می شود»

⁹ مثنوی، دفتر اول، بیت 1785 به بعد

¹⁰ Аллах гўзал ва гўзаликни севади.



go'zalligi unga maftunkorlik bag'ishlaydi. Kamtar ayol - sadoqat, fidoyilik va go'zallik ramzi. Ayolning tashqi go'zalligi emas, balki ichki dunyosining go'zalligi unga joziba va ayollik baxsh etadi. Zulayxoning chehrasi imon nuri bilan munavvar bo'limguncha Yusuf alayhissalomni asir etolmadi. Imon keltirgan Zulayxonni ko'rgan Yusuf esa, oshiqi beqaror bo'lib, bir kechada Zulayxoning chekkan yigirma yillik muhabbat azobini tortadi. Bularning barchasi – ilohiy muhabbatning bir tomchisidir. Ma'lum bo'ladiki, ayolga muhabbat qo'yish – ilohiy muhabbatning bir tomchisi, nishonasi ekan.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Nicholson R.A. The Mathnawi of Jalaluddin Rumi, ed. trad. and commentaries, 8 vol. – London, 1925-1937
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/jaloliddin-rumiym-masnaviy-daftari-yakum-1.html>
3. عبد الحسين زرينكوب. بحر در کوزه. – تهران: علمی، ۱۳۶۸؛ عبد الحسين زرينكوب. سر نی. جلد های ۲ و ۱. – تهران: علمی، ۱۳۶۸
4. جلال الدین همایی. تفسیر مثنوی معنوی. داستان قلعه صفات الصور یا که دز هوشربا. – تهران: دانشگاه تهران، ۱۳۸۴
5. ابراهیم خدایار. دعا در مثنوی. – تهران: انتشارات علم، ۱۳۸۷
6. Курунбеков А. «Маснавий маънавий»да тасаввуф тимсоллари. – Т.: ТДШИ, 2011; ўша муаллиф: Мавлоно Жалолиддин Румийнинг авлодларга мангу маънавий мероси // Жалолиддин Румийнинг мангу маънавий мероси. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: ТДШИ, 2007. – Б.9-12;
7. مولانا جلال الدین محمد بلخی رومی. مثنوی معنوی. ۱۳۸۴، ۲۷۷/۲
8. کمال الدین حسین ابن حسن خوارزمی. جواهر الاسرار و ضواهر الانوار. در ۴ مجلد. با تصحیح دکتر محمد جواد شریعت. – تهران: اساطیر، ۱۳۸۴
9. مولانا یعقوب چرخی. رساله نائیه؛ مولانا جامی. رساله نی. مقدمه، تحشیه و تعلیق خلیل الله خلیلی. – کابل: ۱۳۳۶.
10. خواجه ایوب. اسرار الغیوب. شرح مثنوی معنوی. – تهران: اساطیر، ۱۳۷۷، ۶۸۴ ص
11. محمد بن محمد بحر العلوم. تفسیر عرفانی مثنوی معنوی. – تهران: ایران یاران، ۱۳۸۳
12. ملا هادی سیزوواری. شرح مثنوی. – تهران: وزارت فرهنگ و ارشاد اسلامی، ۱۳۷۴
13. Комилов Н. «Маснавий» ҳикоятларининг таржима ва талқини // Жалолиддин Румийнинг мангу маънавий мероси. Илмий мақолалар тўплами. Масъул мухаррир Курунбеков А. – Т.: ТДШИ, 2007. – Б. 35-48.
14. کولیوت شمس. جلد 4. تهران. 294-293.
15. از اقوال مشهور صوفیه است به معنی «مجاز پلی است به سوی حقیقت»
16. مثنوی، دفتر اول، بیت ۱۷۸۵ به بعد
17. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005. Б. – 240.
18. Мұхаммад Истеъломий. Илоҳий ишқ куйчиси. “Маснавий”га муқаддима. (Мавлоно Жалолиддин Мұхаммад Балхий). Форс тилидан Жаъфар Мұхаммад таржимаси. –Техрон, 2001. – 187 б.